

ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR

Andijan Davlat Pedagogika Instituti

Maktabgacha ta’lim fakulteti

Logopediya yo’nalishi 102-guruh talabasi

Tojiddinova Orzigul Umidjon qizi

ANATATSIYA; Eshitishida nuqsoni bor bolalarga ta’lim-tarbiya berish, eshitish idrokini rivojlantirish darajasini takomillashtirish, tug‘ma eshitish nuqsonlarining kelib chiqish sabablarini aniqlash, eshitishdagi ortirilgan nuqsonlarni aniqlash, eshitish organlariga tasir ko’rsatuvchi omillar, tug‘ma kar bolalar, orttirilgan nuqsonlarni haqida so‘z borgan.

KALIT SOZLAR; Eshitish organlari, kar bola, zaif eshitish, orttirilgan nuqsonlar, nuqson, quloq.

Defektologlarning (T.A. Vlasova, R.M. Boskis, D.V. Neyma va boshqalarning) bergan ma’lumotlariga ko’ra, eshitishida nuqsonlari bor bolalarning rivojlanish darajasi shu nuqsonning bola hayotining qaysi davrida paydo bo‘lganligiga va og‘ir-yengilligiga bog‘liq. Surdopedagogikada eshitishida nuqsoni bor bolalar kar, zaif eshituvchi, keyinchalik zaif eshituvchi bo‘lib qolgan bolalar guruhiga bo‘lib o‘rganiladi. Tug‘ma hali tili chiqmagan go‘daklik davrida ikkala quloqning mutlaqo eshitmasligi kar-soqovlikka olib keladi. Eshitish qobiliyatining qisman buzilishi natijasida nutqiy nuqsonga uchragan bolalar zaif eshituvchi bolalar guruhiga kiritiladi. Nutqi rivojlanib, shakllanib olgandan so‘ng yaxshi eshitmaydigan bo‘lib qolgan bolalar keyinchalik zaif eshituvchi bo‘lib qolganlar guruhiga kiradi. Bu nuqson nutq tarkib topganidan so‘ng vujudga kelsa ham, quloqdagi nuqson tufayli eshitishda xos kamchiliklar bo‘laveradi. Turg‘un eshitish nuqsonlari kelib chiqish sabablariga ko‘ra tug‘ma va orttirilgan bo‘lishi mumkin. Kar bolalarning 25–30 foizida eshitish nuqsonlari tug‘ma bo‘ladi. Bunga sabab: onaning homiladorlik davrida turli kasalliklar, masalan,

gripp bilan kasallanishi, ota-onalarning ichkilik ichib turishi, onaning homiladorlik davrida bilar-bilmas doridarmonlarni iste'mol qilishi (ayniqsa, streptomitsin, xinin singari dorilarni), homilaning shikastlanishi; irsiyat, genetik faktorlar (quloq tuzilishidagi patologik o'zgarishlar bo'lishi, masalan, eshitish yo'li atreziyasi – bituvi). Eshitishdagi orttirilgan nuqsonlar quloq yoki eshitish analizatorining tuzilishidagi kamchiliklardan kelib chiqishi mumkin. Bunga oliy asab markazi, o'tkazuvchi yo'llar yoki quloqning o'zidagi o'zgarishlar sabab bo'ladi. Bolaning ilk yoshida otit, parotit (tepki), meningit, meningoensefalit, qizamiq, qizilcha, gripp kasalliklari bilan kasallanishi ba'zi hollarda kar-soqovlik yoki turli darajalardagi zaif eshitishga olib kelishi mumkin. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganish, eshitish idrokini rivojlantirish tizimini takomillashtirish, kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilishlariga erishish, o'qitishning texnik vositalarini takomillashtirish, bog'cha va maktab ta'limining uzluksizligini ta'minlash, respublika bo'yicha sog'liqni saqlash hamda xalq ta'limi tarmoqlari ishlarini muvofiqlashtirish, erta tashxis diagnozi muammolarini hal etishdan iboratdir. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar va kattalar uchun ta'lim muassasalari, uning bo'g'inlari birligi va vorisligi asosiga kiritilib, har bir bosqich o'z vazifalarini o'taydi va ayni paytda keyingisi bilan bog'liq. Barcha muassasalar faoliyati asosida yagona maqsad bolalar rivojlanishidagi buzilishlarning oldini olish va korreksiyalash, shaxsni har tomonlama shakllantirish, uni hayotga va mehnatga tayyorlashdan iboratdir. Bu umumiy maqsad butun ta'lim tizimi va uning har bir bo'g'ini ishini yo'naltiradi. Bizning jamiyatda eshitish nuqsoniga ega bolalar ham normal tengdoshlari kabi ham aqlan, ham jismonan tarbiyalanishga haqli bo'lib, mustaqil hayotga, yetuk komil insonlar etib tayyorlanadilar. Olib borilgan kuzatishlar natijasida quyidagi tavsiyalarni aytib o'tishimiz mumkin:

- zaif eshituvchilar, kech kar bo'lgan bolalar uchun bolalar bog'chalarini ochish va ishini takomillashtirish;
- maxsus bolalar bog'chalari bo'lmagan qishloq va shaharlardagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ta'lim va tarbiya muassasalariga jalb qilish.

- ommaviy bolalar bog'chalarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus guruhlar tashkil etish.

- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus ta'lim mazmunini zamon talablari darajasida takomillashtirish;

- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning atrofdagilar bilan erkin muloqotga kirishuvi va surdotarjimonga muhtoj bo'lmasdan so'zlashishning og'zaki va yozma shakllaridan erkin foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va muntazam takomillashtirib borish;

- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uzluksiz ta'limning har bir bosqichida maxsus hamda inklyuziv ta'limini ta'minlash uchun tegishli shart-sharoitlar, omillarni aniqlash, tanlash va amaliyotga joriy qilish. Maxsus pedagogika tarmog'i - surdopedagogika (lot. «surdus»-karlik), eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar va katta kishilarning rivojlanishi, ularga ta'lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan (maxsus pedagogika tarmog'i). Eshitishda nuqsoni bo'lgan ilk va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlanishi, ularga ta'lim-tarbiya berish jarayonlari va qonuniyatlari - maktabgacha surdopedagogika fanining predmeti hisoblanadi. Maktabgacha davr eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir, zero korreksionpedagogik tadbirlarning barvaqt boshlanishi bola o'sishidagi kamchiliklarining oldini olishga, shuningdek, ijtimoiy faol, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yordam beradi. Maktabgacha surdopedagogikaning alohida fan sifatida o'rganilishi, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning yosh davrlariga xos jismoniy, psixik va fiziologik xususiyatlarning mavjudligi, bolalar turmushini tashkil etish va qulay ta'lim-tarbiya shart-sharoitlarini yaratishda ushbu omillarni hisobga olish zarurligi bilan belgilanadi. Eshitish borliqni tovushli hodisalar shaklida aks ettirilishi, inson (tirik jon zod)ning tovushlarni anglash va farqlash qobiliyati. Eshitish eshitish organi yoki tovush analizatori (tovush tasirini qabul qiluvchi va ajratuvchi murakkab nerv tizimi) yordamida amalga oshiriladi. Eshitish qobiliyatining buzilishi ko'p

hollarda muddatli boladi. Masalan, o'rta qulog'ning tashkil topishi, shamollash, oltungugurt tosiqlarining yuzaga kelishi, tashqi va o'rta qulogining anomal tuzilishi (quloq suprasining bo'lmasligi yoki etarlicha rivojlanmaganligi, eshitish yo'llarining bitib qolishi, quloq pardasidagi nuqsonlar va boshqalar) kabi holatlarda. Zamonaviy meditsina ularni davolashning samarali metodlariga ega. Ular qatoriga konservativ va operativ metodlarni kiritish lozim. Odatda samarali davolash, ba'zan uzoq vaqt davolash tadbiri olib borilganda eshitish qobiliyati tiklanadi. Eshitish qobiliyatining buzilishiga yuqumli kasalliklar bilan og'rish, zaharlanish, akustik yoki kontuziyali jarohatlar ham sabab bo'lishi mumkin. Qulog'i og'irlik yoki karlik kelib chiqish sabablariga ko'ra: nasliy, tug'ma va kelib chiqqan tarzda turlarga ajratiladi. Yoshlikda eshitish qobiliyatining buzilishiga olib keluvchi sabablar orasida quyidagilari alohida ko'rsatiladi: homiladorlikning birinchi uch oyida onaning virusli kasalliklar bilan og'rishi (qizamiq, ko'r, gripp, gepatit viruslari va boshqalar), rivojlanishdagi tug'ma nuqsonlari (masalan, labi va tanglayidagi yoriq), chala tug'ilish, kichik vaznli tugilishi (1500 dan kam) hamda yomon tug'ilishi kabilar. Eshitish qobiliyatining buzilishiga homiladorlik davrida onaning spirtli ichimlik, giyohvand moddalar istemol qilishi, antibiotiklarni qabul qilishi ham sabab bo'lishi mumkin. Karlikning nasliy otishi holati juda kam kuzatiladi

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ilk yoshdan boshlab maxsus ta'lim-tarbiya berilgan holda, ularning umumiy rivojlanishidagi orqada qolishning oldini olish, mavjud nuqsonlarni korreksiyalash va ularning har tomonlama kamol topishini ta'minlash mumkin bo'ladi. Pedagogikada tarbiya qonuniyatlari to'g'risidagi fan sifatida hodisalarning keng doirasi qamrab olinadi va turli sharoitda ta'lim-tarbiyani tashkil etish masalalari ishlab chiqiladi. Zaif eshituvchini tekshirish jarayonida eshituvchidan foydalangan holda nutqni idrok etish imkoniyatlari aniqlanadi. Zaif eshituvchining birinchi darajasida, eshituvning pasayishi 50 db dan oshmaganda, bola 1-2 metrdan uzoq masofada gaplashish balandligidagi nutqni aniq qabul qila olgani sababli, nutqiy muomalaga kirisha oladi. Zaif eshituvchining ikkinchi darajasida, ya'ni eshituv

50- 70 dbgacha pasayganda, so'zlashuv, nutq 1 mefrdan uzoq bo'lmagan masofadan qabul qilinganligi sababli, nutqiy muomala qiyinlashadi. Zaif eshituvchining 3-darajasida, ya'ni eshituvning pasayishi 70 db dan ortganda, nutqiy muloqot buziladi, sababi, gaplashish balanligidagi so'zlashuv nutq quloq yonida ham noaniq idrok etiladi. Ma'lumki, eshituv holati 15-20 db ga pasayishi bilan, nutqni egallashda qiyinchiliklar vujudga keladi. L.V.Neyman ushbu holatni «normal eshituvchi va zaif eshituvchining chegara holati» deb hisoblaydi. L.V.Neyman tasnifiga ko'ra zaif eshituvchi va kariik o'rtasidagi shartli chegara 85 db doirasida bo'ladi. Eshituv holatining pasayishi kariik darajasida bo'lgan holda, nutqni mustaqil ravishda (tabiiy) o'ganish imkoniyati bo'lmaydi. Idrok etilayotgan tovushlar chastotasining doirasiga qarab 4 guruhdagi kar bolalar farqlanadi:

1-guruh - eng past chastotali tovushlarni idrok etadigan bolalar (125-250 Gs).

2-guruh - 500 Gs gacha bo'lgan chastotalami idrok etadigan bolalar.,

3-guruh - 1000 Gs gacha bo'lgan chastotalami idrok etadigan bolalar

4-guruh - keng diapazondagi chastotalami, ya'ni 2000 Gs va undan balandroq tovushni idrok etadigan bolalar.

Eshitish qoldiqlari minimal bo'lgan (1-2 guruhdagi) kar bolalar yaqin masofadan qattiq tovushlami (baqiriq, parovoz qichqirig'i, nog'ora ovozi) idrok etishga qodir bo'ladilar 3-4 guruhdagi kar bolalarning eshitish qoldiqlari sezilarliroq bo'ladi, shu sababli ular kichik masofadan turli chastotalar ovozlari (turli musiqa asbob va o'yinchoqlar, hayvonlarning qattiq hayqirishi, ayrim maishiy tovushlar, qo'ng'iroq, telefonning jiringlashi)ni idrok etib, farqlay oladilar. 3-4 - guruh kar bolalar tanish bo'lgan bir nechta so'z yoki bo'g'inlami farqlay oladilar. Shunday qilib, barcha kar bolalar turli miqdordagi eshitish qoldiqlariga ega bo'ladilar Maxsus eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar borliqdagi tovushlarni bilishga xizmat qiladi hamda og'zaki nutqni rivojlantirishga yordam beradi. Hozirgi kunda tibbiyot muassasalarida eshituv holatini baholashda Xalqara tasnif ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Ushbu

tasnifga ko'ra eshituvning o'rtacha pasayishi 500, 1000, 2000 Gs chastotalarda aniqlanadi. Zaif eshituvning 1-darajasi - eshituvning pasayishi 40 db dan oshmaydi. Zaif eshituvning 2-darajasi - eshituvning pasayishi 40 db dan 55 db gacha bo'ladi. Zaif eshituvning 3-darajasi - eshituvning pasayishi 55 db dan 70 db gacha bo'ladi. Zaif eshituvchilikning 4-darajasi - eshituvning pasayishi 70 db dan 90 db gacha bo'lishi bilan ifodalanadi. Eshituvning pasayishi 90 db dan o'tib ketsa, bunday holat «kañik» deb tafsiflanadi. Eshitishda nuqsoni bor bolalarning kasalligining kelib chiqish sabablari: Eshitish buzilishlari bolalarda turli infeksiyon kasalliklar oqibatida yuzaga keladi. Meningit, skormotika, otit, gripp kasalliklarini infeksiyon-yuqumli kasalliklar qatoriga kiritish mumkin. Eshitish buzilishlari ichki, o'rta, tashqi quloqlarni shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Ichki quloq va quloq nervi shikastlangan bo'lsa, ko'p holatlarda karlik, agar o'rta qo'loq shikastlangan bo'lsa eshitish pasayishi kuzatiladi. Maktab davrida ovoz tassurotlarining yuqori chastotasi ham eshitishning yuqori chastotasi ham eshitish qobiliyatini pasayishiga olib kelishi mumkin. Bolada eshitish nuqsoni yuzaga kelishga xomiladorlikni noqulay davom etishi, onaning virusli kasalliklari ham muhim rol o'ynaydi (qizamiq, grip

N. Neyman eshitish chastotalari maydoni yordamida qabul qilishiga ko'ra 4 ga bo'ladi:

1. chastotani qabul qiladiganlar 150-250 Gk bu bolalar bironta tovushni eshitmaydi.

2. 125-250-500 Gk chastotani qabul qiladi. A va U harflarini ajrata oladilar.

3. 125-250-500-1000 Gk 3-4 unililarni ajrata oladi.

4. 125-2000 Gk yaqin va uzoq bo'lmagan gaplarni eshitadi. Tanish gap va so'z, unli va undoshni ajrata oladi.

Darajalarga bo'ladigan bo'lsak 3 ta darajaga bo'linadi:

1 darajali 50 Dbdan oshmaydi. 1 metrdan oshiqroq masofadagi so'z va tovush balandligidagi gaplarni ajrata oladi.,

2 125-8000 Gk darajali 70 Dbdan 1 metrdab kamroq masofada eshitadi.

3. 3-darajali 73 Dbdan gap so'zlar yetib borishi qiyinlashadi.

Xulosa qilib aytganda, Bola tug'ilganidan boshlab uning barcha sezgi organlari rivojlana boshlaydi. Sezgi organlari orqali bola tashqi muhitda bo'layotgan voqea-hodisalarni anglaydi va tushuna boshlaydi shu orali bolada ko'nikma paydo bo'laveradi. Tashqi muhitdan informatsiya ola boshlaydi. Inson tashqi muhitdagi informatsiyani ko'rish orqali oladi. Ko'rish bu insonning birinchi o'rinda turuvchi sezgi ko'rgani. Bola tug'ilganidan boshlab 10-11 kunligidan dunyoni oq qora fonda ko'ra boshlaydi. 40 kun o'tgandan so'ng boshqa ranglarni ham anglay boshlaydi. Ikkinchi o'rinda eshitish organi turadi. Eshitish orqali bolada tushuncha paydo bo'ladi. Bolalar 1 yoshga to'lar- to'lmas dada, aya, xola kabi ochiq bo'g'inli so'zlarni eshitib taqlid orqali ayta boshlaydi. Bolaning nutqini rivojlantirish uchun to'liq eshitish juda muhimdir. Kichkina bola eshitish yordamida tilning eng murakkab tizimini egallaydi; talaffuz qobiliyatlarini egallaydi; juda ko'p sonli so'zlarning tovush tarkibini, ulardan foydalanishni o'rganadi, so'zlarning grammatik o'zgarishlarida va jummalarni qurishda mavjud bo'lgan ma'noni tushunishni o'rganadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T., «O'zbekiston» 1997.
2. Barkamol avlod orzusi. T., 1998.
3. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2005.
4. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2014.
5. Сурдопедагогика. Под ред. Е.Г.Речинской Москва. Влад. 2018
6. Марсиновская Е.Н. Особенности овладения знаниями и умениями детьми с недостатками слуха. – Л., 2019.
7. Речинская. Е.Г. Дошкольная сурдопедагогика. – М., 2018.
8. Акрамова, Х. (2020). Коррекционно-педагогические обобенности формирование навыков здорового образа жизни у детей с умственной осталостью в семейных условиях. Архив Научных Публикаций JSPI, 15(1).
извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/918

9. Akramova, X. (2020). Социально-педагогическая работа с детьми дошкольного возраста. Архив Научных Публикаций JSPI, 7(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/674